

Oilada mehnat tarbiyasi

Dinora Xolmurod qizi Dilmurodova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti unversiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mehnat bosqichlari, o'quv mehnat, ijtimoiy-foydali mehnat, ishlab chiqarish mehnati to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: mehnat tarbiyasi, oila, maktab, kasb hunar kolleji, akademik litsey, oliy ta'lim, ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik

Work education in the family

Dinora Kholmurod kizi Dilmurodova
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after
Alisher Navoi

Abstract: This article provides information about the stages of work, educational work, socially useful work, production work.

Keywords: labor education, family, school, vocational college, academic lyceum, higher education, agriculture, animal husbandry, crafts

Mehnat tarbiyasi shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayondir. U bolada aqlini taniy olish darajasiga yetib kelganda shakllana boshlaydi.

Mehnat tarbiyasi shakllanishini bosqichlarga bo'lsak, axloqiy tarbiyaning vositasi bo'lganligi tufayli avvalo u oilada shakllanadi, bunga namuna qilib ota-ona tomonidan farzandiga tuzib beriladigan kun tartibini misol keltirsak bo'ladi.

Keyingi bosqich maktabgacha ta'lim muassasasi (bog'cha)da beriladigan mehnat tarbiyasi, bunda bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq tarzda topshiriqlar beriladi. Chunki bolaning imkoniyatlaridan yengil mehnat tarbiyasi uni zeriktirishi va ularning imkoniyatlaridan og'ir mehnat tarbiyasi esa bolani bezdirishi mumkin.

Maktabda beriladigan mehnat tarbiyasidagi bosqichda esa bolalar yosh munosabati bilan guruh (sinf)larga ajratiladi. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayoni ham og'ir akdiyjismoniy mehnat, maktabga o'z vaqtida kelib ketish, o'qish yozishni o'rganish ham mehnat tarbiyasi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylardagi ta'lim shaklida o'zlashtiriladigan mehnat tarbiyasini keyingi bosqichimiz uchun asos qilib oldik bunda kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlashadi va bevosita o'zlari tanlagan kasblarga doir ko'nikma va malakalar shakllantiradilar, akademik litsey o'quvchilari esa kelajakda egallaydigan kasblarning nazariy asoslarini o'zlashtiradilar. Bu bosqichda mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish asos bo'ladi. Oliy ta'limning bakalavriyat magistratura bosqichlarida Mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi.

O'quv (ta'lim) mehnati o'quvchilarning asosiy mehnat turi hisoblanib ko'proq ta'lim muassasalaridagi bilimlarni tashkil qiladi bu esa o'quvchida ishtiyoq va kuch talab qiladi. O'quv mehnati jarayonida o'quvchilar aqliy va jismoniy mehnat ham bajarishadi. Xususan, jismoniy tarbiya, mehnat darslarida jismoniy mehnat bajarishsa, matematika, fizika, astronomiya, geografiya fanlarida - aqliy mehnat ya'ni mantiqiy fikrlash asosiy o'rin tutadi.

Ijtimoiy foydali mehnat bu - o'quvchilarning guruh bilan kelishgan holda bir-birini qo'llash, hamjihatlik tarzida olib boriladigan mehnat turi hisoblanadi. Ijtimoiy foydali mehnat turiga ish yoki o'qishda navbatchilik bilan bajariladigan yumushlar, hasharlar, xalq manfaati uchun bino qilinayotgan imoratlarning qurilish ishlariga qatnashish va bazi ovqatlanish muassasalarida o'z o'ziga xizmat qilish kabi mehnat faoliyatlari misol bo'la oladi.

Ijtimoiy foydali mehnat turi ijtimoiy ahamiyat kasb etgani holda bevosita shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan mehnat faoliyati turi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish - har bir soha vakillari uchun hamda jamiyatning taraqqiy etishi va yashashi uchun zarur bo'lgan turli iqtisodiy mahsulotlarni yaratish jarayonidir. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element - mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'lishini taqazo etadi. Bundan ko'rinib turibdiki ishlab chiqarish ham mehnat tarbiyasining asosiy birliklaridan hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasi asrlar osha yangi yangi kasblarning shakllana boshlagani sayin boyib, taraqqiy eta boshladi. Buning zamirida dastavval paydo bo'lgan ziroatchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi xo'jaliklar yotadi bu mehnat xo'jaliklari esa qadim asrlardan to shu kungacha ulug'lanib kelinmoqda hatto Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon,

hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi. Masalan, alloma dehqonlar haqida:

... Qalug'-tebranurka bulardan aso'g',

Tuzuk tegir ye ichimdan tato'g'

(Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat (bo'ladi),

Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi). deb aytadi.

Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.

2. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадий - психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. О'zМУ xabarlari. Toshkent – 2022. №1/5.

3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald*. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.

4. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" *Central Asian journal of theoretical and applied sciences* Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.

5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*, 3, 710-719. (2023)

6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*, 3, 734-745 (2023).

7. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

8. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

9. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.

10. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 240–242. Retrieved from

11. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.